

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/2 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Полвонов Козимбек*

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД  
МАЪЛУМОТЛАР ..... 10-15

*Hadjamuratova Matlyuba*

МАКТАВГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЈТИМОЙ НИМОYA QILISHGA INNOVATSION  
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI ..... 16-21

*Шовкатов Шокир Шовкат ўғли*

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР ..... 22-31

*Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA  
ULARNING ANAMIYATI ..... 32-36

*Пардаев Асрор*

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ  
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ..... 37-42

## **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи*

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 43-52

*Рахманов Зафар*

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ ..... 53-62

*Аминов Фазлитдин Бахадирович*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 63-70

*Курбонова Шахриноз Авазхоновна*

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР  
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ..... 71-81

*Azimova Hulkar Egamberdiyevna*

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI ..... 82-87

*Rajabov Orzujon Mamasoliyevich*

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF  
THINGS)DAN FOYDALANISH ..... 88-93

*Саидов Сарвар Хайруллоевич*

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ..... 94-104

*Сержанов Аймурат Медетбаевич*

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ  
ЗАРУРИЯТИ ..... 105-111

*Туробов Шерзод Алишеревич, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич*

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ  
ТАЖРИБАСИ ..... 112-119

*Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi*

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJYIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH  
YO‘LLARI ..... 120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*  
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ..... 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*  
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 133-138

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Алимова Шахноза Хамидовна*  
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК  
ГУРУҲ СИФАТИДА ..... 139-147

*Асракулова Адиба Набиевна*  
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ  
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ  
АҲАМИЯТИ ..... 148-154

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*  
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS  
MEDIA ..... 155-160

*Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*  
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING  
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ..... 161-165

*Abdikhmidova Sevinch Obidjon kizi*  
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ..... 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*  
SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ..... 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*  
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ..... 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*  
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҲАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ..... 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*  
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI  
BIRLIKLARINING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ..... 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadriddinovna*  
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH  
XUSUSIYATLARI ..... 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*  
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI  
ASOSIDA)..... 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*  
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF  
TURKOPHONES ..... 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloevna*  
INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*  
TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI ..... 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i> A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION .....	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i> THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS .....	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT .....	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI .....	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i> CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS .....	252-258
<i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилу Махмудовна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬУТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i> EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS .....	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i> USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA .....	276-282
<b>12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i> O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHLTLARI VA JSTGA A‘ZOLIKNING TA‘SIRI .....	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li</i> SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI .....	293-298
<i>Mustanov Ixom Abdivalijonovich</i> BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHLTLARI .....	299-304
<i>G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich</i> YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI .....	305-309
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i> TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI .....	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i> TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI .....	315-321
<i>Moydinova Elmira</i> APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM .....	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODEL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI .....	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI .....	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI .....	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI .....	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR .....	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI .....	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA .....	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymurotovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH .....	389-393

**Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

**SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIYAVIY  
NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada soliq nazorati shakllari va uslublarini takomillashtirish soliq ma'murchiligining muhim ko'rsatkichi sifatida nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Soliq qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalitli so'zlar:** Soliq tizimi, soliq yuki, soliqlar turlari, soliq islohoti, soliq konsepsiyasi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq to'lovi, majburiy to'lovlar.

---

**Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li,**  
Doctoral student of the  
Tashkent State University of Law

**IMPROVING THE LEGAL BASIS OF TAX CONTROL STATE FINANCIAL CONTROL AN  
IMPORTANT FACTOR OF THE INSTITUTE**

**Abstract:** In this article, the theoretical and practical aspects of improving the forms and methods of tax control as an important indicator of tax administration are studied. Proposals for improving the tax legislation have been made.

**Key words:** Tax system, tax burden, types of taxes, tax reform, tax concept, tax administration, tax payment, mandatory payments.

---

**Асадов Элдорджон Низамиддин угли,**  
Докторант Ташкентский государственный  
юридический университет

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ ВАЖНЫЙ ФАКТОР ИНСТИТУТА**

**Аннотация:** В данной статье изучаются теоретические и практические аспекты совершенствования форм и методов налогового контроля как важного показателя налогового администрирования. Внесены предложения по совершенствованию налогового законодательства.

**Ключевые слова:** Налоговая система, налоговое бремя, виды налогов, налоговая реформа, налоговая концепция, налоговое администрирование, уплата налогов, обязательные платежи.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N42>

Soliq ma'muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish masalalari bilan birgalikda amaldagi

soliq qonunchiligini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, huquqni qo'llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ham amalga oshirish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga qayd etib o'tishimiz kerakki, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida soliq sohasidagi islohotlarni amalga oshirish va soliq munosabatlarini takomillashtirish, soliq nazoratining shakllari va ularning amal qilish holatini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Soliq nazorati davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi, chunki uning vositasida davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-moliyaviy resurslar jamlanadi, yalpi ichki mahsulotning zarur qismi davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun ajratiladi. Soliq nazorati mamlakatdagi nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotiga rioya etilishiga erishishni anglatadi. Soliq nazorati huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida adolat, demokratiya kabi tamoyillarga amal qiladi.

Soliq nazorati soliqqa tortiladigan sub'ektlar va ob'ektlarni hisobga olishining, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Ma'lumki, soliq nazoratini takomillashtirishda "soliq nazorati" tushunchasi turli olimlar tomonidan o'rganilish obekti bo'lib kelgan.

Masalan, Rus olimi Bezrukovning fikricha, soliq nazorati tushunchasi ikki asosiy ma'noda qo'llanilgan:

- 1) Soliq nazorati - iqtisodiyot tomonidan amalga oshiriladigan jamoat nazoratining bir funksiyasi yoki uning bir elementi bo'ladi;
- 2) Soliq qonunchiligining ijro etilishi ustidan nazorat olib boruvchi hokimiyat vakolatli organlarining maxsus vazifalaridan biri hisoblanadi.

Soliq nazoratining tushunchasi orqali soliq qonunchiligining ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan hokimiyat organlarining faoliyat doirasi tushuniladi[1].

Rus olimlaridan L.Mironovanning fikriga ko'ra, soliq nazorati davlat soliq siyosatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar tomonidan soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga amal qilishlari ustidan kontrol funksiyasini amalga oshirilishida namoyon bo'ladi [2].

Soliq nazoratining asosiy vazifasi - belgilangan soliq va yig'implarni o'z vaqtida, belgilangan hajmda yig'ilishini ta'minlash yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat [3].

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar, o'tgan yillardagi ma'lumotlar, statistik ma'lumotlar asosida soliq to'lovchilarning soliq va majburiy to'lovlari ustidan monitoring olib borish talab etiladi.

Mazkur vazifani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ma'muriy va moliyaviy nazorat komissiyalari va qo'mitalari hamda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashining a'zolari xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank va boshqalar davlat nazorati sub'ektlari hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar B.Toshmurodova va S.Elmirzaevlar fikriga ko'ra soliq nazorati deganda davlat soliq organlarining soliq to'lovchilar faoliyatini o'rganishga qaratilgan faoliyati va bu borada ularning amalga oshiradigan ishlari tushuniladi [4].

Bunda soliq nazorati soliq to'lovchilarning amaldagi soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini o'rganishga, soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashishga qaratiladi.

I.Zavalishina soliq nazoratiga "Soliq nazorati – davlat soliq xizmati organlarining soliq qonunchiligi bajarilishi, pensiya va boshqa majburiy to'lovlarning (jumladan, pensiya ajratmalarini) byudjet va byudjetdan tashqari (jumladan, Pensiya jamg'armasiga) to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlashdan iborat" deb ta'rif beradi [5].

Soliq nazorati o'quv qo'llanmasida "Soliq nazorati – soliqqa tortiladigan sub'ektlar va ob'ektlarni hisobga olishning, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya va Respublika yo'l jamg'armalariga majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishdan iborat" deb ta'rif berilgan. [6].

G.G.Nesterovning fikricha, keng ma'noda "soliq nazorati" tushunchasi vakolatli organlarni barcha faoliyat doirasini (soliq to'lovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, soliq hisobi, soliq tekshiruvlari, shu bilan birga, soliqlarni undirish bilan bog'liq nazorat qiluvchi organlar faoliyati ham) qamrab oladi [7].

Shu bilan bir qatorda, tor ma'noda "soliq nazorati" vakolatli organlar tomonidan bevosita o'tkaziladigan tekshirishlarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini mamlakatdagi nazorat tiziminining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotga rioya etilishiga erishishni amalga oshiradi.

Soliq nazoratini amalga oshirish vazifasi vakolatli davlat organlari uchun soliq ma'muriyatchiligi sohasida eng asosiy yo'nalishlardan biri hisoblansa, soliq intizomini samarali ta'minlash soliq nazoratining eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni bajarish va soliq ma'muriyatchiligi sohasida islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyulda "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va yig'implarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshirish bo'yicha" chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldagi "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5214-son farmoyishi qabul qilingan bo'lib, ushbu farmoyishda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliq va yig'implarning to'liq hajmda tushishini ta'minlash, soliqqa tortilishdan bo'yin tovlash imkoniyatini istisno qilish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida nazarda tutildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasining muhim yo'nalishlardan biri sifatida soliq nazoratining shaffofligini ta'minlash, korrupsiya omillarini kamaytirish va soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish ham nazarda tutilgan.

Tan olish zarurki, soliq nazoratini takomillashtirish, soliq to'lash intizomiga qattiq rioya qilish, soliq qonunbuzarligiga yo'l qo'ymaslik, soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini ta'minlashda muhim omillardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida soliq nazorati tushunchasiga ta'rif berilgan, unga ko'ra soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Shuningdek, mazkur moddaning 2-qismiga muvofiq Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliq nazorati orqali soliq to'lovchilarning va davlat soliq organlari xodimlarining soliq to'g'risidagi qonun va qonunosti hujjatlariga qay darajada amal qilinayotganligi nazorat qilinadi.

Soliq nazoratini amalga oshirishda **ikki asosiy sub'ekt** ishtirok etadi:

**bir tomondan**, zimmasiga soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilar;

**ikkinchi tomondan** esa soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat soliq xizmati organlari.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 135-moddasiga ko'ra soliq nazorati bu – vakolatli organlarning soliq to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyatidir.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, soliq organlari soliq siyosatini amalga oshiruvchi, soliq qonunchiligining qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va bu orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga ko'maklashuvchi vakolatli davlat organlaridir.

Bugungi kunda demokratik davlat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan izchil islohotlarni amalga oshirishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni liberallashtirish muhim o'rin tutar ekan, bunda avvalo, soliq nazorati shakllari va uslublarini takomillashtirish soliq ma'murchiligining muhim ko'rsatkichi sifatida chuqur ilmiy-konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda qonunchilikka sindirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish vazifalaridan kelib chiqqan holda soliq nazorati shakllari va uslublarini takomillashtirish soliq ma'murchiligining muhim qismi sifatida ilmiy tadqiq etish hamda amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun quyidagi taklif hamda tavsiyalar beriladi:

1. Soliq nazorati sohasidagi muammolardan biri soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq. "Qayd qilingan manzil" tushunchasining tartibga olinmaganligi, hamda noqonuniy faoliyat boshlagani uchun jazoning kuchli emasligi turli soliqdan qochish uchun turli qonunbuzarliklarni amalga oshiruvchi "bir kunlik" firmalarning tashkil bo'lishiga olib kelmoqda. Ular haqiqiy bo'lmagan hujjatlardan va noaniq manzildan foydalanadilar. Ular turli

noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirib, soliqlarni to'lashdan ko'ra korxonani "tashlab ketish"ni ma'qul ko'radilar. Ushbu korxonaning soliq qarzlarni undirish uchun korxonada mol-mulklarini topish soliq organi uchun katta mehnat va xarajatlarni talab qiladi. Shuningdek, ularni sud orqali yopish va qarzlarni undirish ham vaqt va xarajatni talab qiladi. Shu tufayli yangi ochila yotgan yuridik shaxslarni ro'yxatga oluvchi inspeksiyalar tomonidan har taraflama o'rganilishi va taqdim etila yotgan ma'lumotlar haqqoniyligiga, ya'ni ko'rsatilayotgan manzilgohining haqiqiyliigi, moddiy texnika bazasini mavjudligiga e'tibor kuchaytirilishini majburiy yo'lga qo'yish mexanizmini ishlab chiqish va uni qonuniylashtirish maqsadga muvofiq.

2. Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan sud-huquq, soliq islohotlari, soha qonunchiligi mazmun-mohiyati yuzasidan keng aholi qatlami, ayniqsa endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh tadbirkorlik sub'ektlari orasida huquqiy targ'ibot va tashviqot, tushuntirish ishlari olib borishni kengaytirish, davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashkil qilinadigan seminarlar, davra suhbatlarida ishtirok etishga jalb qilish orqali ularning olib borilayotgan islohotlar, yangiliklarga nisbatan ongli munosabatini oshirish, ularning soliq maslahatchilari va auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan kengroq foydalanishiga ko'maklashish, soliq sohasiga oid muammolar yoki tushunmovchiliklar vujudga kelganda davlat soliq xizmati organlari murojaat qilish tartibi bilan tanishtirib borish tavsiya etiladi.

3. Tadbirkorlik sub'ektlari hajmiga (yirik, o'rta va kichik) muvofiq ravishda Soliq kodeksidagi rejali soliq tekshiruvi muddatiga doir qoidalarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. V.L. Rykunova, S.N. Belousova and I.O. Kirichuk. Forms and Methods of Tax Control: Ratio of Concepts. Southwest State University, St. 50 Years of October 94, 305040 Kursk, Russia.
2. Миронова Л.В. Повышение эффективности налогового контроля в процессе обеспечения. – М.: "Издательство Юрайт". 2011 г. С.7
3. Alimardonov I.M, Yusupov A.Ch, Qulmatov A.O. Soliq tizimini isloh qilish sharoitida soliq nazoratining shakllari va uni takomillashtirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, mart, 2012 yil. 2 b.
4. Toshmurodova B, Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmentida ichki soliq nazorati va tahlili. "Moliya" ilmiy jurnali. 2010 yil, 3-son.
5. I.Zavalishina. Soliqlar: nazariya va amaliyot. T: 2005, "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi. 74 bet.
6. A.Tagayev, F.Xashimoto, G'.Ro'ziev, K. Xotamov. "Soliq nazorati". O'quv-qo'llanma. T.: "Yangi asr avlodi", 2010. 4-bet.
7. Нестеров Г.Г. Развитие механизмов налогового контроля в системе обеспечения экономической безопасности: Автореф. дис. ... д.э.н. – М., 2010. – С. 45.
8. Бондарев, Дмитрий Михайлович Налоговая дисциплина в процессах формирования доходов бюджета: диссертация ...кандидата экономических наук: 08.00.10 Владикавказ 2019 <http://dlib.rsl.ru>
9. Nuritdinova V. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash garovidir // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. <sup>1</sup> 1, fevral, 2018 yil. – B.120-122

10. Тихонова А.В. — О роли информационно-коммуникационных технологий в налоговых правоотношениях: российский и зарубежный опыт // *Налоги и налогообложение*. – 2019. – № 7. – С. 51 - 63. DOI: 10.7256/2454-065X.2019.7.30591 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=30591](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=30591)
11. Ермоловская О.Ю., Вертипрахова А.А. Налоговый комплаенс – право, обязанность или моральная норма // *Экономическая безопасность*. – 2021. – Том 4. – № 3. – С. 685–696. doi: 10.18334/ecsec.4.3.112093

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).